



## FRIENDSHIP AND INTERNATIONAL SOLIDARITY BETWEEN THE CENTRAL ASIAN STATES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Jo'rayeva Ozoda Karim Qizi  
Bukhara State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5451101>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> August 2021  
Accepted: 30<sup>th</sup> August 2021  
Online: 05<sup>th</sup> September 2021

### KEY WORDS

Independence, youth,  
economy, politics,  
strategy, interethnic,  
interregional,  
neighborhood

### ABSTRACT

*Inter-regional cooperation between Uzbekistan and Central Asia was discussed, as well as export-import cooperation. With the growth of Central Asia's economy and population, the overall potential of the domestic market will also increase. It should be noted that Uzbekistan, which has its own characteristics and competitive advantages in some types of economic activity, also occupies a worthy place.*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDAGI DO'STLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIGI

Jo'rayeva Ozoda Karim Qizi

Buxoro davlat universiteti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 25-avgust 2021  
Ma'qullandi: 30- avgust 2021  
Chop etildi: 05- sentabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Mustaqillik,  
yoshlar, iqtisod,  
siyosat, strategiya,  
millatlararo,  
mintaqalararo

### ANNOTATSIYA

*O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlik aloqalari haqida eksport import hamkorliklari haqida so'z yuritilgan. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti va aholining o'sishi bilan ichki hududiy bozorning umumiy salohiyati ham yuksaladi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida o'ziga xos xususiyatlar va raqobat ustunliklariga ega bo'lgan O'zbekiston ham munosib o'rin tutmoqda.*

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonimda-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa

joydan ko'chib kelib, o'rnashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin sharq va g'arbning, shimol va Janubning, qadim-qadim o'tmish va buyuk



kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari jvujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an 'nalar shakllangan. Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonvarvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning, eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar, avloddan- avlodga o'tib kelmoqda. O'zbekiston mystaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng nafaqat mamlakatga nom bergan o'zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millati sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun keng sharoit va imkoniyat yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan ko'p millatli diyorimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashga ham e'tibor berdi. Asrlar mobaynida o'lkamizning shahar-u qishloqlarida masjidlarining erkin faoliyat ko'rsatib turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Prezidentimiz Sh.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik " degan goya asosida amal qilamiz. Hozirgi vaqtda dunyoning boshqa mintaqalarida kuzatilayotgan "pandemiyaning navbatdagi to'lgini" va u bilan bog'liq xavf-xatarlar hammamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga undamoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi

turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin mumkin. O'zbekiston Respublikasining millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni o'rnatish siyosati inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy-me'yoriy hujatlarga to'la mos keladi. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma'naviy va falsafiy ahamiyatini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad- fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Imom Moturudiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'likda deb bil" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda. El yurtimiz hozirgi og'ir sharoitda barcha sinov va qiyinchiliklardan yanada kuchli va irodali bo'lib chiqmoqda, va albatta o'zining hayoti va taqdiri, kelajagi Vatanimizning taqdiri va kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekanini chuqur his etmoqda. Qurolli Kuchlarimiz qudratini qo'shinlarning professional va jismoniy salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarimizni



vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratamiz.

Tashqi siyosatimiz ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonç ruhidagi alohida e'tibor qaratamiz. Asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytiramiz. O'zbekistonning iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini kengaytirish iqtisodiyotga davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlarning muhim elementi bo'lib barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim zamin bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasida mamlakat va uning mintaqalarini eksportga yo'naltirishgan, rivojlanish modeliga o'tish, jumladan, hududlarning eksport salohiyatini oshirish va qo'llab quvvatlash, ichki bozordagi tovar va xizmatlarni jahon bozoriga kiritish bo'yicha chora tadbirlar oshirilishi bayon etilgan. O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasidagi mintalararo hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda mualliflar, O'zbekiston bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash masalalarini mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy o'sishning muhim manbai deb hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida

mintaqalararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishdan iborat. Ishning asosiy vazifalari tashqi savdo aylanmasini baholash, mamlakatning raqobat ustunliklari va salohiyati, O'zbekiston mintaqalararo hamkorlikning tamoyillari va asosiy yo'nalishlarini belgilash hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyodan energiya va neft mahsulatlari rangli va qora metallar va boshqa mahsulotlarning asosiy importyori hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan sanoat va ilmiy texnikaviy hamkorlik, mintaqalararo hamkorlik sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish, ta'lim-tarbiya hujjatlarini o'zaro tan olish to'grisida shartnomalar imzolandi. O'zbekiston mashinasozlik, elektr to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati sohalarida ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish hamkorlik uchun yaxshi istiqbollarni ko'rmoqda. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, va Turkmaniston iqtisodiy mintaqalararo rivojlanish va mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida ham O'zbekiston uchun muhim hamkorlardir. Bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar xalqlarning tarixiy yaqinligi va o'zaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Hamkorlikni kengaytirishning muhim omili qo'shma va xo'rijiy korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidir. O'zbekiston Markaziy Osiyodan energiya va neft mahsulatlari, rangli va qora metallar va boshqa mahsulotlarning asosiy importyori hisoblanadi. Qozog'iston Qirg'iziston, Tojikiston, va Turkmaniston iqtisodiy mintaqalararo rivojlanish va mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida ham O'zbekiston uchun muhim hamkorlikdir. Bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar xalqlarning tarixiy va o'zaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga



asoslanadi. Yagona energatika tizimining qayta tiklanishi O'zbekiston Qozog'iston Tojikiston, Turkmanistonga umumiy quvvatlardan foydalanish va energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Yagona elektr energiyasi bozori istemolchilarga oshkora narxlar belgilash imkonini beradi va a'zo davlatlarning iqtidodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mintaqaviy va mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarni yanada kuchaytirish markaziy Osiyo davlatlari uchun yagona iqtisodiy bozorni yaratish, mintaqaviy va jahon bozorlarida mahsulotning raqobatbardoshligi oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, yagona ilmiy va ta'lim salohiyatini shakllantirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali ularning taraqqiyotiga sezilarli ijobiy turtki bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo iqtisodiy munosabatlarining mana shunday yaxshilanishi, umumiy olganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va prokmativ siyosatida natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkstsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan ochiq va konstruktiv siyosati naqadar to'g'ri ekanini global pandemiya mintaqa rahbarlarining o'zaro yordam va koronavirus tarqalishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha amalga oshirgan qo'shma chora-tadbirlari ham

isbotlandi. Global pandemiya xavfiga qaramay Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining doimiy muliqoti ta'minlandi mamlakatlarning koronavirus infeksiyasi tarqalishining dastlabki kunlaridanoq bir-birlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishni boshladilar. O'zbekiston Qozog'iston Tojikiston va Qirg'izistonga bir necha bor gumanitar yordam yubordi. Bundan tashqari pandemiya davrida koronavirusga qarshi kurashda tibbiyot sohasida axbarot va tajriba almashinuvi o'zaro gumanitar yordam ko'rsatish, chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatlanishi yo'lga qo'yishga erishildi. Bu esa mintaqada dunyoning boshqa davlatlariga nisbatan koronavirus bilan kasallanish va uning natijasidagi o'lim sonining kamligini ta'minlash imkonini berdi.

O'zbekiston bugungi tashqi siyosati xususan, yaxshi qo'shnihilik va pragmatik mintaqaviy siyosati, davlatning xalqaro nufuzini oshiribgina qolmay, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlariga ega hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlarini mustahkamlash iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni shuningdek mintaqa mamlakatlari o'rtasida transport logistiki sohasidagi aloqalarni kengaytirish uchun ishonchli zamin yaratdi. Davlatimiz rahbarining qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash yo'lida yuritilayotgan tashqi siyosati avvalo mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minladi. Bu o'z navbatida O'zbekiston shuningdek mintaqamizning investitsiya jozibadorligiga yo'l ochdi. Ichki mintaqaviy savdo hajmini, ayniqsa tayyor mahsulotlar hisobiga oshirish ulkan istiqbolga ega. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti va aholining o'sishi bilan



ichki hududiy bozorning umumiy salohiyati ham yuksaladi. O'zbekiston sarmoyalari faol ishtirok eta boshladi. Xulosa o'rnida, qayd etish mumkinki O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo'llab - quvvatlanmoqda. Qo'shma davlatlar O'zbekiston ishonch va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan sa'y - harakatlarini yuqori baholamoqda Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror,xavfsiz hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda.Bu esa,mintaqa davlatlari,iqtisodiyotlatning tezkor taraqqiyotiga yordam beradi.Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov ta'kidlaganidek :*"Tarixiy hamjamiyat ,lingvistik o'xshashlik*

umumiy an'ana va urf odatlarning mavjudligi bizga birgalikda yashash va birdamlikda yangi dunyoni yagona va birdamlikda yagona dunyoni sivilizatsion jamiyatni qurishda son-sanoqsiz imkoniyatlar beradi ". Vaqt uchib borayotgan o'qdir,uni hech kim to'xtatib qololmaydi. Aqlli odam "o'qni" to'g'ri manzilga yo'naltirishi mumkin. Biz ham manzilimizni to'g'ri olib yangi O'zbekistonning ilg'or,bilimdon yoshlari sifatida o'z maqsadimiz sari olga intilib kelajakni bugundan boshlash uchun doim izlanish va intilishdamiz. Biz yoshlarning bugun qilgan ishlarimiz kelajakda O'zbekistonning shuhratiga qo'shuvchi avlodlarimizga muqaddas beshik bo'lajak .

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бартольд В.В. История Туркестана. Москва, Издательство Восточной литературы, 1963.
2. Дж.Тойнби. Постижение истории. Москва, Издательство «Прогресс», 1991.
3. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Тошкент, Ўзбекистон. 1997й С.С. Сафоев. Марказий Осиёдаги геосиёсат. “ПАТЕНТ ПРЕСС” нашриёти. Тошкент, 2005